

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI
TARBIYACHILARIDA IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK
OMILLARINI RIVOJLANISHI

Hamroyeva Nigina Said qizi

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotasiya: Maqolada bugungi kunda jamiyatimizda kata etibor qaratilayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini psixologik xususiyatlari haqida fikr mulohazalar yuritilgin.

Kalit so'zlar: kompetentlik, shaxs amaliy faoliyati, pedagog shaxsi, gender munosabatlar, tarbiyaviy munosabatlar, ta'lim, tarbiya, professionallik, xulq-atvor.

Ma'lumki, hozirgi zamon ijtimoiy psixologiya fanida shaxs amaliy faoliyatini o'rganish va rivojlanish bilan bog'liq izlanishlar muhim o'rin egallamoqda. Shu nuqtai nazardan aynan amaliy faoliyat mahsuli bo'lgan ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni samaradorligini tahlil qilishning talaygina muammolari va qiyinchiliklari mavjud. Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy psixologiya ilmi, balki qator psixologiya fani tarmoqlarining ham amaliyotda qo'llanilishi demakdir. Xuddi shunday tushuncha barcha ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan, lekin ushbu tushunchani inkor etmagan holda aytish mumkinki, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezoni sifatida qarab tahlil qilish uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayonini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tegishli metodologik adabiyotlar tahlili ijtimoiy-

psixologik kompetentlik muammolari bilan shug‘ullanuvchi etakchi olimlarning, fikr-mulohazalariga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Jumladan A.K. Markova ijtimoiy-psixologik kompetentlikka asos qilib tarbiyachi faoliyatining aynan psixologik tamoyillarini o‘zlashtirishga bo‘lgan malakalarini qabul qilishni taklif etadi. Shundan kelib chiqib A.K. Markova tomonidan ilgari surilgan kasbiy faoliyat modeli o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- mehnat jarayoni va uning psixologik natijasi.
- samaradorlik va samarasizlik.
- turli sharoitlarda o‘ziga xoslik.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik deganda tarbiyachining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda etarlicha yuqori darajada pedagogik faoliyat, pedagogik muomala amalga oshiriladi. Bunda tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanishi borasida yaxshi natijalarga erishishda aks etuvchi pedagog shaxsi yuzaga chiqadi. Ayni paytda, pedagogning ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatleri mutanosibli bilan baholanishi mumkin. A.K. Markova pedagog shaxsi tuzilmasida integrallik tavsif deb nomlanuvchi quyidagi sifatlarni alohida ajratib ko‘rsatish orqali o‘z mulohazalarini bayon etadi[1].

–pedagogning kasbiy pedagogik o‘zini-o‘zi anglashi, ya’ni uning professional sifatida o‘zi haqidagi tasavvurlari majmuasi;

– pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi, ya’ni pedagog uchun xos bo‘lgan pedagogik faoliyat va muloqot vazifalari, vositalari va usullarining mustahkam birlashishi;

– ijodiy salohiyatli, ya’ni shaxsning noyob, shu jumladan nostandart darajada pedagogik masalalarni echishga imkon beradigan kreativ qobiliyatlari majmuasi.

Akmeografik yondashuv muallifi N.V. Samoukinaning[2] fikricha, akmeo-grammani tarbiyachining kasbiy kompetentligini to‘liq tizimli ifodalash usuli sifatida qo‘llash faqatgina uning istalgan komponentlarini ajratish imkonini berib qolmay, balki ular ichidan sarmahsul faoliyat uchun to‘sqinlik qilayotgan

ayrim jihatlarni ham aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida sub'ektlilik yondashuvining rivojlantirilgan va konkretlashtirilgan shakli sifatida shu faoliyatga oid haqiqiy vazifalarni hal qilishda psixik aks ettirish va psixik boshqaruv mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Kasbiy faoliyatni individual yondashuv asosida kompleks o'rganish faoliyatni "mehnat sub'ekti-kasbiy muhit" tizimida qarab chiqish va "mehnat sub'ekti" va "kasbiy muhit" tizimlari ostidagi komponentlar va mana shu komponentlar ichidagi o'zaro aloqadorlik tuzilmasini aniqlashni ko'zda tutadi.

"Kasbiy muhit" jarayoni o'z navbatida quyidagilardan iborat:

- mehnat ob'ekti va quroli.
- kasbiy faoliyat texnologiyasi va uning predmeti.
- kasbiy faoliyatning kasbiy, tashkilotchilik, jismoniy va ijtimoiy sharoitlari va x.k.

Ayni paytda kompetentlik qobiliyat sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida so'z boradi. Bunda "Qobiliyat" tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bunday holda shaxs tuzilmasidagi kognitiv, motivatsion va xulqiy komponentlarning birligini aks ettiruvchi «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

A.I. Subetto kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining sifat, xususiyat, mahorat toifalari diapazonida tahlil qiladi. Psixologik lug'atlarda xususiyat tushunchasi biror bir insonga xos faoliyat va ahloqning aniq sifatli-sonli bosqichini ta'minlovchi mustahkam ta'lim sifatida ta'riflangan. A.I.Subettoning ta'kidlashicha, kompetentlik va kompetensiya tushunchalari murakkab sutrukturali va dinamik ta'limdir, ammo sifat va xususiyat toifalariga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan quyidagi umumiy tamoyillarga bo'ysunadi:

–sifatning vujudga kelishi va rivojlanishida potensial va dolzarb tashqi va ichki ziddiyatlar tizimining mavjudlik tamoyili;

–butunlik va tizimlilik tamoyili, bunda sifatning ichki tuzilmasi

–ob’ektning sifatini yuqori sifat darajasida, sifatning tashqi tuzilmasi esa, ob’ekt yoki jarayonning tashqi muhit bilan o‘zaro ta’siri sifatini real sifat darajasida aniqlaydi;

– turli jarayonlar sifatini natijalarda aks ettirish tamoyili.

Kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining tuzilmasini tadqiq etishda bir nechta yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo‘naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko‘nikma), kognitiv va operatsional[3].

M. Kyaerst tadqiqotlarida kompetentlik mazmuni va uning asosi sifatida (qobiliyatlar, iqtidor, bilim), inson faoliyati jarayon sifatida (ta’riflar, tavsiflar, alomatlar), faoliyat natijalari (ish natijalari, faoliyat ob’ektidagi o‘zgarishlar) kabi komponentlar kiritiladi. Muallif kompetentlik mazmuniga quyidagi tavsiflarni kiritgan:

– lavozimda ishlayotgan shaxs (xodim) ga majburiy bo‘lgan masalalarga intellektual mosligi;

– mutaxassis tomonidan shakllantirilgan va hal etilgan masalalarning asosiy ishdagi miqdori va sifati;

–asosiy masalalarni hal etishdagi muvaffaqiyat;

–muammoli masalalar yechimining samaradorligida namoyon bo‘luvchi shaxsning xususiyatlari. Bu yerda olim kompetentlik tushunchasiga ko‘proq insonning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olib yondashgan[4].

L. Spenser va M. Spenserlar o'z tadqiqotlarida kompetensiyalarni faoliyatning samaradorligi va muvaffaqiyat omili sifatida talqin qilishadi. Tadqiqotchilar shaxs psixologik strukturasi kompetensiyalarning quyidagi besh turini ajratgan: motivlar kompetensiyasi sifatida; psixofiziologik xususiyatlar; men-konsepsiyasi (ko'rsatmalar, qadriyatlar, insonning samarali faoliyat olib borishga ishonchi); inson nimaga qodirligini ko'rsatuvchi bilimlar; ma'lum jismoniy va aqliy masalalarni bajarish qobiliyati sifatida ko'nikma[5]. Ular barcha kompetensiyalarni tashxislash va rivojlantirish qiyinroq bo'lgan ichki (men-konsepsiyasi, individual xususiyatlar, motivlar) va treninglar yordamida rivojlantirish mumkin bo'lgan tashqi (bilim va ko'nikmalar) omillarga ajratadi. Ichki psixologik omillar bilim va malakalarni qo'llashga turtki bo'ladi va intilishlarni ta'minlaydi. Bu erda gap muhim komponent, ya'ni o'zini-o'zi nazorat qilish haqida borayotgandek, ammo mualliflar uni kompetensiyaning tuzilmasiga kiritmagan. Ular motivlar va psixofiziologik xususiyatlar ishning puxta nazoratsiz ham uzoq vaqtda bajarilishini ta'minlaydi deb ta'kidlaydilar. Mualliflar ularni biror bir lavozimdagi kishining o'rnini boshqa bir kishi egallagan vaqtdagi harakatlarini aniqlovchi javobli yoki reaktiv motivlar sifatida qaragan. Bu erda, bizning fikrimizcha aynan o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi nazorat qilishning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida tahlil qilinadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya tuzilmasida, ijtimoiy-psixologik kompetentlik namoyon bo'lish holatlarida o'z-o'zini nazorat qilish, shaxsiy imkoniyatini amalga oshirish qobiliyatini aks ettiruvchi belgilarni ajratish zarur. Bilim va ko'nikmalarni samarali qo'llash shaxsdan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlari shakllanganlanishini talab qiladi.

A.K. Osnitskiyning ta'kidlashicha, shaxs faoliyatga kirishish jarayonida o'zini-o'zi nazorat qilishi bu sub'ekt tomonidan amalga oshiriluvchi va imkoniyatlarini shu faoliyat talablariga mos keltirishga yo'naltirilgan tartiblashdir. SHu bilan birga, bunday o'zini-o'zi nazorat qilish inson fiziologik funksiyalarining o'zini-o'zi tartiblash va psixik holatlariga tegishli emas. Ayni

vaqtda faoliyatning o'zini-o'zi nazorat qilishi doirasida fiziologik o'zini-o'zi nazorat qilish va psixik holatning o'zini-o'zi nazorat qilishning ma'lum qismi sub'ekt oldida turgan masalalar bilan bog'liq maqsadga yo'naltirilgan boshqarish predmeti bo'lishi ham mumkin. Agarda shaxs faoliyatga kirishish jarayonida o'zini-o'zi nazorat qilishi fiziologik nazorat qilish bilan muvofiq kelmasa, unda biz hech qanday muvaffaqiyatga erisha olmaymiz. Qachonki ikkala holat ham o'z o'rnida keladigan bo'lsa biz ko'zlangan maqsadimizga erishamiz.

O.A. Konopkinning fikriga ko'ra, inson faoliyatga kirishish jarayonida ongli ravishda o'zini-o'zi nazorat qilishi quyidagi tuzilmaga ega: maqsadni sub'ektiv qabul qilish faoliyatning muhim shartlarining sub'ektiv modeli; harakat dasturi (harakatlarni, vosita va usullarni tartiblashtirish); natijalarni baholash.

Ayrim mutaxassislar tarbiyachi kompetentligini mohiyatini uning kasbiy faoliyatga tayyorgarligidan iborat deb hisoblaydilar. Faoliyatga tayyorlik kompetentlikning tuzilmali komponenti sifatida, shuningdek, kengroq ma'noda esa, kasbiy o'zini-o'zi anglash, motivatsion-qadriyatli va mazmunli jarayonli komponentlarning birligini o'zida aks ettiruvchi shaxsning dinamik tuzilmali-darajali ta'limi sifatida qaralishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Маркова А.К. Психология профессионализма.– М.: Знание, 1996. С – 144 с.
2. Самоукина Н. В. Карера без стресса. – СПб.: Питер, 2003. С. 253.
3. Субетто А.И. Онтология и эпистемология компетентностного подхода, классификация и квалиметрия компетенций. – М.: Исслед. Центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. С. 48.
4. Кьерст М. Рассмотрение компетентности в психологической концепции совершенствования управления производственной организацией // Актуальные проблемы труда: сб. науч. тр. – Тарту, 1980. – С. 45-67.
5. Спенсер Лайл М., Спенсер Сайн М. Компетенции. Модели максимальной эффективности работы. Пер. с англ. М.Яковенко. – М.: ХИППО, 2005. – 371 с.

6. Ramazonov, J. (2022). SELF-ADMINISTRATION AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 9(9).

7. Ramazonov, J. (2022). ШАХСДА РЕФЛЕКСИЯ ДАРАЖАЛАРИНИНГ ЎСИБ БОРИШ ДИНАМИКАСИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 10(10).